

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI


2026-yil yanvar-aprel oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Tashqi savdo aylanmasi
- II. Eksport hajmi
- III. Import hajmi
- IV. Metama'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar

I. TASHQI SAVDO AYLANMASI

2026-yil yanvar-aprel oylarida Navoiy viloyatining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1 022,6 mln. AQSH dollariga yetdi va 2025-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 473,8 mln. AQSH dollariga yoki 86,3 % ga ko'paydi.

Tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH dollari)



TSAda eksport hajmi 584,3 mln. AQSH dollariga (2025-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 61,7 % ga ko'paydi) va import hajmi 438,3 mln. AQSH dollariga (2,3 b. ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida 146,0 mln. AQSH dollari qiymatida musbat tashqi savdo balansi qayd etildi.

**Navoiy viloyatining yirik hamkor davlatlar bilan tashqi
savdo aylanmasi dinamikasi (mln. AQSH dollari)**

Davlatlar	2024 y.	2025 y.	2026 y.
Fransiya	275,0	274,8	493,6
Xitoy	45,2	73,4	281,5
Rossiya Federatsiyasi	70,5	55,9	51,6
Turkiya	16,5	13,9	51,2
Qozog'iston	19,7	23,7	38,0
Yaponiya	3,3	7,4	15,0
Singapur	0,4	0,0	10,1
Germaniya	8,1	4,4	9,9
Daniya	10,1	10,3	8,9
Qirg'iz Respublikasi	4,5	3,3	5,5
Koreya Respublikasi	2,9	2,7	5,3
Litva	3,6	3,3	5,2
Turkmaniston	3,3	1,8	4,7
Eron Islom Respublikasi	3,2	3,6	3,9
AQSH	2,3	15,5	3,8
Xitoy, Gonkong MMR	0,5	0,5	3,8
Tojikiston	1,6	1,8	2,8
Afg'oniston	9,9	3,5	2,8
Belarus	1,0	1,3	2,4
Hindiston	1,9	2,6	2,4

Navoiy viloyati jahonning 78 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Fransiyada (48,3%), XXRda (27,5%), Rossiyada (5,0%), Turkiyada (5,0%) va Qozog'istonda (3,7%) qayd etilgan.

II. NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI TARKIBI


2.1- jadval

Tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.
Jami eksport	361,4	584,3	102,5	161,7	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	9,7	8,6	86,1	88,1	2,7	1,5
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	11,0	3,8	106,5	34,6	3,1	0,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	10,4	11,4	110,7	109,3	2,9	1,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	-	14,3	-	0,03	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	288,2	514,3	103,4	178,5	79,7	88,0
Sanoat tovarlari	28,6	30,8	83,3	108,0	7,9	5,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	2,8	0,1	13,4 b.	0,9	0,8	0,01
Turli xil tayyor buyumlar	7,9	11,8	113,0	149,6	2,2	2,0
Boshqa tovarlar	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar	2,7	3,5	4,6 b.	129,7	0,7	0,6

Mavzuga doir havola: [Eksport tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,4 % ni tashkil etib, asosiy ulush kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (88,0 %), sanoat tovarlari (5,3 %), turli xil tayyor buyumlar (2,0 %) va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (1,9 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Navoiy viloyatining yirik eksportyor hamkor davlatlari (mln. AQSH dollari)



Mavzuga doir havola: [Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

2026-yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Fransiya (84,4 %), Rossiya (4,8 %), Turkiya (2,0 %), Daniya (1,5 %), Qozog'iston (1,0 %), Qirg'iz Respublikasi (0,9 %), XXR (0,6 %), Afg'oniston (0,5 %), Turkmaniston (0,4 %) va Tojikiston (0,4 %) kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 96,5 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyatining XSST* bo'yicha eksporti tarkibi (2-xonali)

2.2- jadval

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati % da
0	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8 596,2	88,1
05	Sabzavotlar va mevalar	6 180,9	98,9
04	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 821,1	53,5
03	Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	375,4	-
02	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	212,5	2,0 b.
00	Tirik hayvonlar	5,1	186,5
08	Hayvonlar uchun ozuqalar	1,2	-
1	Ichimliklar va tamaki	-	-
2	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3 820,1	34,6
27	O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	2 480,1	5,7 b.
26	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1 092,0	49,6



XSST kodi	XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati % da
23	Tabiiy kauchuk	144,9	162,5
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	103,1	97,7
3	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	11 380,5	109,3
33	Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	11 380,5	109,3
4	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-
5	Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	514 338,1	178,5
52	Noorganik kimyo moddalari	496 797,4	181,5
56	O'g'itlar	11 501,7	101,5
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	3 595,4	152,3
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	1 044,1	7,6 b.
51	Organik kimyo moddalari	676,2	-
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	636,4	136,7
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	63,6	45,7
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	23,3	12,9 b.
6	Sanoat tovarlari	30 879,3	108,0
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	14 945,5	2,1 b.
68	Rangli metallar	9 025,5	86,1
66	Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	5 771,4	52,7
69	Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 093,1	12,5 b.
62	Boshqa joyda tasniflanmagan kauchuk mahsulotlar	43,8	3,5 b.
7	Mashinalar va transport asbob-uskunalari	24,7	0,9
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	12,5	0,7
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	10,9	7,2
77	Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	1,3	0,3
8	Turli xil tayyor mahsulotlar	11 797,2	149,6
84	Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	11 032,5	154,7
89	Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	503,1	182,3
85	Poyabzal	239,8	53,8
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	21,8	72,4
9	Boshqa tovarlar	-	-

2026-yil yanvar-aprel oylarida 2,6 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2025-yilning mos davriga nisbatan 87,5 % ni tashkil qildi.


Meva va sabzavotlar eksporti

2.3- jadval

	Miqdori, tonnada	Ming AQSH dollar	Hajmiga nisbatan, o'sish sur'ati
Jami	2 604,8	3 934,6	95,0
mevalar va rezavorlar	540,5	732,1	66,2
<i>uzum</i>	540,5	732,1	73,1
<i>sitrus mevalar</i>	-	-	-
<i>quritilgan mevalar</i>	-	-	-
sabzavotlar	2 064,3	3 202,5	105,5
<i>pomidor</i>	1 367,3	2 137,4	2,0 b.
<i>piyoz</i>	-	-	-
<i>karam</i>	-	-	-
Bodring	85,9	91,8	2,4 b.
yong'oklar	291,3	389,7	53,0
loviya	232,0	450,7	57,0
boshqalar	87,8	132,9	39,8

2026-yil yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 3,9 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan 95,0 % ni tashkil qildi va jami eksportdagi ulushi 0,7 % ni tashkil etdi.


To'qimachilik mahsulotlari eksporti ulushi



2026-yil yanvar-aprel oylari yakuni bo'yicha 12,3 mln. AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 2,1 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 121,6 % ni tashkil qildi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida kiyim-kechak mahsulotlari (88,0 %), sintetik, jut tolalar (8,0 %) asosiy ulushni egallagan.

Xizmatlar eksporti tarkibi (ming AQSH doll.)



Mavzuga doir havola : [Xizmatlar eksporti \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

Xizmatlar eksporti hajmi 3 492,1 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,6 % ini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 129,7 foizni tashkil qildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (64,7 %), transport xizmatlari (29,2 %), moliyaviy xizmatlar (4,7 %) va safarlar (turizm) xizmatlari (1,4 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

III. NAVOIY VILOYATINING IMPORTI

2026-yilning yanvar-aprel oylarida import hajmi 438,3 mln. AQSH dollariga yetdi va 2025-yilning mos davriga nisbatan 2,3 b. ni tashkil qildi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (77,0 %), sanoat tovarlari (8,3 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (6,0 %) hisobiga to'g'ri keldi.

Navoiy viloyatining importi tarkibi

3.1- jadval


XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.
Jami import	187,4	438,3	126,3	2,3 b.	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	7,4	8,9	59,1	120,0	4,0	2,0
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,7	1,8	51,5	107,1	0,9	0,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	9,3	0,9	21,5 b.	9,4	5,0	0,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,1	-	-	-	0,01
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	17,8	26,1	76,7	146,4	9,5	6,0
Sanoat tovarlari	36,6	36,2	87,4	98,8	19,5	8,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	98,3	337,3	174,4	3,4 b.	52,4	77,0
Turli xil tayyor buyumlar	6,7	9,9	120,3	146,1	3,6	2,2
Boshqa tovarlar	-	0,01	-	-	-	0,01
Xizmatlar	9,6	17,1	2,4 b.	179,1	5,1	3,9

Mavzuga doir havola: [Import tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2026-yilning yanvar-aprel oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 177,8 mln. AQSH dollariga ko'paydi va 421,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 17,1 mln. AQSH dollariga yetdi.

Navoiy viloyatining yirik importyor hamkor davlatlari (mln. AQSH dollari)



2026-yil yanvar-aprel oylarida Navoiy viloyati 55 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar XXR (63,5 %), Turkiya (9,1 %), Qozog'iston (7,3 %), Rossiya (5,3 %), Yaponiya (3,4 %), Singapur (2,2 %) va Germaniya (2,0 %) jami importning 92,8 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyatining XSST* bo'yicha importi tarkibi (2-xonali)

3.2- jadval

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
0	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8 886,9	120,0
04	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	5 016,6	137,0
05	Sabzavotlar va mevalar	2 637,1	94,3
00	Tirik hayvonlar	482,7	93,9
07	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	431,8	134,7
06	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	151,9	-
01	Go'sht va go'sht mahsulotlari	116,8	148,9
09	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	46,1	8,4 b.
08	Hayvonlar uchun ozuqalar	3,9	15,2
1	Ichimliklar va tamaki	-	-
2	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 802,7	107,1
26	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	697,4	2,6 b.
23	Tabiiy kauchuk	431,3	28,6 b.
24	Probka va yog'och-taxtalar	324,6	60,5
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	179,3	370,5 b.
28	Metall rudalari va metall parchalari	134,6	123,8
27	O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	35,5	5,5
3	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	875,9	9,4
34	Tabiiy yoki sun'iy gaz	504,0	-
33	Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	278,6	3,1
32	Ko'mir, koks va briketlar	93,3	38,5
4	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	62,4	18,0 b.
41	Hayvonlarning yog'lari	59,7	-
43	Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	2,2	88,7




XSST kodi	XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
42	O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,5	54,9
5	Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	26 124,0	146,4
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	10 633,7	132,4
52	Noorganik kimyo moddalari	7 071,9	3,1 b.
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	3 318,2	133,8
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 723,5	9,9 b.
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	1 423,1	164,8
51	Organik kimyo moddalari	951,0	120,3
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	538,2	137,4
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	293,1	151,1
56	O'g'itlar	171,3	6,5
6	Sanoat tovarlari	36 199,4	98,8
69	Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	12 810,7	131,4
68	Rangli metallar	9 206,3	191,5
67	Cho'yan va po'lat	6 978,9	49,3
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	4 485,4	127,7
66	Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	1 931,2	58,8
62	Rezina buyumlari	551,0	59,0
64	Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	212,6	191,1
63	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	23,3	35,8
7	Mashinalar va transport asbob-uskunalari	337 335,0	3,4 b.
77	Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	198 303,5	18,0 b.
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	46 528,5	2,2 b.
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	41 280,5	173,3
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	22 744,8	108,8
79	Boshqa transport uskunalari	13 012,2	-
78	Avtomobililar (havo yostiqlaridagi transport vositalari ham) shu jumladan:	8 027,6	42,2
73	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar, metallarni qayta ishlash mashinalari	5 682,5	2,9 b.
75	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar, metallarni qayta ishlash mashinalari	1 535,4	14,7 b.
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalari	220,0	33,2
8	Turli xil tayyor mahsulotlar	9 846,7	146,1
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	4 586,6	112,4
89	Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	2 763,8	118,7
81	Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	1 811,4	10,2 b.
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	427,1	9,2 b.
84	Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	201,9	3,7 b.
85	Poyabzal	40,3	84,1
83	Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	12,6	7,8 b.
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	3,0	2,7 b.
9	Boshqa tovarlar	3,9	-
97	Oltin, monetar bo'lmagan (rudalari va konsentratlaridan tashqari)	3,9	-



2026-yilning yanvar-aprel oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 17 118,9 ming AQSH dollarini yoki jami import hajmining 3,9 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 179,1 foizni tashkil qildi.

Xizmatlar importi tarkibi (ming AQSH dollarida)



Mavzuga doir havola: [Xizmatlar importi \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi qurilish xizmatlari (53,8 %), transport xizmatlari (40,3 %), boshqa amaliy xizmatlar (3,3 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (2,1 %), safarlar (turizm) xizmatlari (0,2 %), moliyaviy xizmatlar (0,2 %) va sug'urta va nafaqa ta'minotiga oid xizmatlar (0,1 %) ga tegishli bo'ldi.

IV. METAMA'LUMOTLAR

*Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi asosida shakllantiriladi: tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar bo'lib, Bojxona qo'mitasining bojxona yuk deklaratsiyasining ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining rezedentdan norezedentga o'tuvchi, davlat chegarasini kesib o'tdekabrdigan va bojxona deklaratsiyasida hisobga olindekabrdigan tovarlarni statistik kuzatuvlari hisoblanadi; tashqi savdo xizmatlar statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

- [Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(yillik\)](#)
- [Tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(yillik\)](#)
- [Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)
- [Tashqi savdo aylanmasi o'sish sur'ati \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)
- [Eksport hajmi \(hudular kesimida, yillik\)](#)
- [Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)
- [Import hajmi \(yillik\)](#)
- [Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)
- [Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: O.Eshtilavov Tel: +998792235043	Ijrochi: O.Eshtilavov Tel: +998792235043 ye-pochta: nv@navstat.uz	Manzil: 210100, Navoiy sh, Amir Temur ko'chasi, 4-uy
--	--	---	---